



O‘ZBEKISTON VA ITALIYA YETAKCHILARI MUNOSABATLARNI USTUVOR YO‘NALISHLARDA YANADA MUSTAHKAMLASH ISTIQBOLLARINI MUHOKAMA QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellaning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘lib turibdi.



8-iyun kuni Italiya Respublikasi Prezidentining qarorgohi — Rim shahridagi Kvirinal saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Saroy oldidagi maydonda oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul hamda o‘tliq gvardiya askarlari saf tortdi. Kvirinal saroyining minorasida Italiya, O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi bayroqlari ko‘tarildi.

Davlatimiz rahbarini Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarella kutib oldi.

Harbiy orkestr ikki mamlakat milliy madhiyalarini ijro etdi.

Faxriy qorovul boshlig‘i davlatimiz rahbariga raport berdi.

Prezidentlar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Birgalikda suratga tushish marosimidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellaning muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari tashrif bilan kelish taklifi va samimiy mehmondo‘stlik uchun minnatdorlik bildirib, Prezident Serjo Mattarella va Italiya xalqini kuni kecha o‘tgan milliy bayram — Respublika e‘lon qilingan kun bilan qutladi.

Italiya Prezidenti Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas ishlohtlarni qo‘llab-quvvatlashini bildirdi hamda mamlakatimizning Markaziy Osiyoda barqarorlik va farovonlikni ta‘minlash borasidagi sa‘y-harakatlarini yuqori baholadi.

Davlat rahbarlari iqtisodiy hamkorlik masalalarini ko‘rib chiqdilar.

Keyingi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash va qo‘shma korxonalar soni ikki barobar ko‘paydi. Yurtimizda Italiyaning Pietro Fiorentini, Terra-nova, Danieli, Imagro, Ansaldo, Saipem kabi yetakchi kompaniyalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Prezidentlar kuni kecha o‘tgan biznes-forum natijalarini mamnuniyat bilan qayd etdilar. Uning yakunida umumiy qiymati 9 milliard yevrodan ziyod bo‘lgan kelishuv va shartnomalarning salmoqli to‘plami imzolandi.

Gumanitar aloqalarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston va Italiyaning madaniy-tarixiy merosiga bag‘ishlangan ko‘rgazma tashkil etishga kelishib olindi.

Bundan tashqari, ta‘lim, arxeologiya, ekologik xatarlarga qarshi kurashish sohalarida hamkorlik qilish istiqbollari muhokama qilindi.

Toshkentda Turin va Piza universitetlarining filiallari muvaffaqiyatli ishlayotgan. Ketma-ket uch yil O‘zbekiston Venetsiyadagi Xalqaro biyennaleda ishtirok etib kelmoqda.

Yil boshidan mamlakatimizga kelayotgan italialik sayyohlar soni 5 karra ko‘paydi. Joriy yil aprel oyidan boshlab Toshkent va Milan o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilgan turistik oqimining oshishiga xizmat qiladi.

Yetakchilar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar, eng avvalo, Afg‘onistondagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashdilar. Afg‘on xalqiga manzilli gumanitar yordamni davom ettirish hamda maxsus vakillarning maslahatlashuvlarini muntazam o‘tkazish muhimligi ta‘kidlandi.

Uchrashuv yakunida Shavkat Mirziyoyev Serjo Mattarellani mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Rim shahridagi rasmiy tadbirlar dasturiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Kiji saroyida Italiya Respublikasi Vazirlar kengashi Raisi Jorja Meloni bilan muzokara o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbari Italiya zaminida ko‘rsatilayotgan samimiy mehmondo‘stlik uchun dildan minnatdorlik bildirdi.

Italiya O‘zbekistonning Yevropadagi muhim va ishonchli sherigi ekani, keyingi yillarda siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot, energetika, madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlik faollashgani qayd etildi.

Bugun strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatilgach, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar misli ko‘rilmagan yuksak darajaga chiqdi. Ushbu, hech mubolag‘asiz, tarixiy voqea O‘zbekiston — Italiya ko‘p qirrali hamkorligini yanada rivojlantirishda yangi muhim bosqichning boshlanishidir.

Bosh vazir Jorja Meloni Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas demokratik yangilanishlar va iqtisodiy ishlohtlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlashini hamda ularning muvaffaqiyatiga ishonishini bildirdi.

Yetakchilar munosabatlarni ustuvor yo‘nalishlarda yanada mustahkamlash istiqbollarini batafsil muhokama qildilar. Savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish asosiy vazifa ekani ta‘kidlandi. O‘zaro savdo va investitsiyalar hajmi keyingi yillarda ikki barobar ko‘paydi. Metallurgiya, energetika, elektrotexnika va boshqa tarmoqlarda Italiyaning yetakchi kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasi loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Amaliy hamkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini hisobga olib, tomonlar texnologik va innovatsion sheriklik bo‘yicha qo‘shma loyihalarni ilgari surish muhimligini qayd etdilar.

Ikki mamlakat hududlari o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni rag‘batlantirish zarurligi ta‘kidlandi.

Madaniyat, italyan tilini o‘rganish, ta‘lim va turizm sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish uchun katta salohiyat borligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Bosh vazir O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda sheriklik, yaxshi qo‘shnchilik va ishonch muhitini mustahkamlash borasidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashi hamda “Italiya — Markaziy Osiyo” hamkorlik formatini yanada rivojlantirishga chaqirdi.

Afg‘onistondagi vaziyat yuzasidan fikr almashlar ekan, afg‘on xalqiga insonparvarlik yordamini ko‘rsatishni, shu jumladan, Termiz shahridagi logistika markazi imkoniyatlaridan foydalangan holda davom ettirish muhimligi ta‘kidlandi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Italiya Bosh vaziri Jorja Melonini tashrif bilan mamlakatimizga kelishga taklif etdi.

Muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Italiya Respublikasi Vazirlar kengashi Raisi Jorja Meloni ikki mamlakat o‘rtasida Strategik sheriklik munosabatlarni o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani qabul qildilar.

Yetakchilar huzurida ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 11 ta davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo hujjatlarni almashish marosimi ham bo‘ldi. Huquqiy masalalarda, sanoat mulki va qishloq xo‘jaligi sohalarida

hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitimlar shular jumlasidan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi bilan Italiya savdo agentligi o‘rtasida restavratsiya sohasida, O‘zbekiston madaniyat va san‘atni rivojlantirish fondi va Italiya Respublikasi Madaniyat vazirligi o‘rtasida madaniyat sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi memorandumlar, tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi hamda 2026-yilga qadar madaniy almashinuvlar dasturi qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Italiyaga rasmiy tashrifning birinchi kunida BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ofisiga tashrif buyurdi va uning bosh direktori Syuy Dunyuy bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston bilan ushbu muhim ixtisoslashtirilgan xalqaro institut o‘rtasidagi hamkorlikni, eng avvalo, agrar tarmoqni modernizatsiya qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash kabi ustuvor yo‘nalishlarda kengaytirishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari keyingi yillardagi samarali hamkorlik natijalarini alohida mamnuniyat bilan qayd etdi.

O‘zbekistonda FAO ofisi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Oxirgi bir necha yilda hamkorlik portfeli uch barobar kengaydi va bugungi kunda yer va suvdan foydalanish, agrosanoat majmui, o‘rmon xo‘jaligi, ekologiya, chorvachilik va ko‘plab boshqa yo‘nalishlarni qamrab olgan.

Global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligiga xatarlar kuchayib borayotgan sharoitda sheriklikni yanada kengaytirishdan tomonlar manfaatdor ekani qayd etildi.

Oziq-ovqat xavfsizligi, fundamental ilmiy tadqiqotlar, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, Orolbo‘yining ekologik muammolarini hal qilish va boshqa sohalarida aniq loyiha va tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan 2030-yilga qadar hamkorlik bo‘yicha yangi keng ko‘lamli dasturni ishlab chiqish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olindi.

FAO shafeligida Samarqandda o‘tkaziladigan yuqori darajadagi xalqaro konferensiyaga tayyorgarlik masalalari ham muhokama qilindi.

Bosh direktor Syuy Dunyuy O‘zbekistonda agrar sohani modernizatsiya qilishga qaratilgan tarkibiy ishlohtlarni qo‘llab-quvvatlashi.

Uchrashuv yakunida mamlakatimiz yetakchisi bosh direktorga shu yil iyul oyida bo‘lajak FAO rahbari saylovida muvaffaqiyatli tiladi.

Shu bilan birinchi kunning tadbirlari yakunlandi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari Rimdan Milan shahriga keldi.

“Malpensa” aeroportida oliy martabali mehmonni Lombardiya viloyati rahbariyati kutib oldi.

9-iyun kuni davlatimiz rahbari ushbu hudud gubernatori bilan uchrashdi hamda Italiyaning yetakchi kompaniya va tashkilotlari rahbarlari bilan davra suhbatini o‘tkazdi.

“ITMA 2023” to‘qimachilik mashinasozligi bo‘yicha eng yirik xalqaro ko‘rgazmaga tashrif buyurilishi ham rejalashtirilgan.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

DAVLAT DASTURI — AMALDA

Ayollari shodon yurtda BAXTLI AVLOD ULG‘AYAR

Joriy yil fevral-aprel oylarida “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan xotin-qizlarning hayotiy maqsadlari, qadriyatlarini va yo‘nalishlari mavzusida respublikamizning oltita hududida 18 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar o‘rtasida sotsiologik tadqiqot o‘tkazilgan edi. Tadqiqot natijasi ko‘rsatdiki, yurtimiz xotin-qizlarining 85 foizi o‘zini ko‘tarinki kayfiyatda va baxtli hisoblaydi.

Bugungi murakkab va sinovli davrda opa-singillarimiz hayotida o‘z samarasini namoyon etmoqda. Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatini himoyalash, jamiyatda faolligini oshirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Buning natijasida bugungi kunda xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 33 foizga, siyosiy partiyalar safida 47 foizga, tadbirkorlikda 37 foizga yetdi.

nozik xilqati — opa-singillarimiz hayotida o‘z samarasini namoyon etmoqda.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatini himoyalash, jamiyatda faolligini oshirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Buning natijasida bugungi kunda xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 33 foizga, siyosiy partiyalar safida 47 foizga, tadbirkorlikda 37 foizga yetdi.

Davomi 5-betda

2023 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudovanning saylovoldi tashviqoti bo‘yicha maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinyapti.

3-betga qarang.

MUHIM SIYOSIY JARAYONNING MUVAFFAQIYATLI O'TISHI UCHUN BARCHA ASOSLAR YETARLI

Alisher USMONQULOV,
Markaziy saylov komissiyasi a'zosi

Jamiyatning demokratik tamoyillarini anglatuvchi muhim jihatlardan biri hayotiy qarorlarni ko'pchilik bo'lib qabul qilishda ko'zga tashlanadi. Bunda ijtimoiy-siyosiy hayotdan tortib, barcha yo'nalishlardagi islohotlarda xalqning bevosita ishtiroki, ularning ovozi va fikrlari inobatga olinishi davlat o'z fuqarolari bilan birgalikda rivojlanish yo'lini tanlaganidan dalolat beradi. O'zbekiston bugun ana shu yo'lda jadal harakatlanmoqda va bu yo'l ortga qaytmas tus olganiga guvoh bo'lyapmiz.

Gap islohotlar xalq xohish-irodasi, muhokamasi, takliflari asosida amalga oshirilayotgani haqida borar ekan, milliy saylov tizimi ham shu jarayonning bir qismi ekanini aytish joiz. Negaki, demokratik islohotlarning yorqin ifodasi aynan saylov jarayonida ko'zga tashlanadi.

2021-yilning oktabr oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini yodga olaylik. O'sha siyosiy jarayon milliy saylov tizimida yangi formatda va xalqaro standartlarga mos ravishda o'tgani yaxshi ma'lum. Joriy yil 30-aprelda esa yurtimiz tarixida ilk bor yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish bo'yicha referendum muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Munosib nomzodni xalq tanlaydi

Milliy saylov tizimi, umuman, islohotlar jarayonida umummilliy fikrlarning inobatga olinishi borasidagi harakatlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Fuqarolar o'z

“

2019-YILDA SAYLOVGA OID BESHTA QONUN O'RNIGA YAGONA SAYLOV KODEKSI QABUL QILINGANI JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH, FIKRLAR XILMA-XILLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASH HAMDA BARQAROR RIVOJLANISH IFODASI SIFATIDA NAMOYON BO'LDI. MAZKUR JARAYON MAMLAKATNING BARCHA SIYOSIY PARTIYALARI, FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ISHTIROKIDA UMUMXALQ MUHOKAMASIGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILGANI BILAN AHAMIYATLIDIR.

ovozining muhim ekanini, inobatga olinishini his eta boshlagach, o'z-o'zidan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ham faollik ko'rsatmoqda. Ko'pchilik befarqlik kayfiyatidan chiqib, daxldorlik hissini tuya boshlagani ham bor gap. Bunga aprel oyida o'tgan referendumda ovoz beruvchilarning 84,51 foizi ishtirok etib, ularning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilishni, degan savolga "ha" deya javob berganida ham guvoh bo'ldik.

O'zbekistonda demokratik-huquqiy davlatning ajralmas belgisi bo'lgan umumiy, yashirin ovoz berish tamoyillariga tayangan saylov huquqini ta'minlash, erkin va adolati, shaffoflikka asoslangan saylovlarni o'tkazish va ularning huquqiy omillarini mustahkamlashga qaratilgan tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Ilg'or xorijiy saylov amaliyoti, shuningdek, xalqaro standartlar, fuqarolar siyosiy ongi hamda elektoral madaniyati o'sishi, amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning borishi va talablari hisobga olinib, mamlakatimiz saylov qonunchiligi ham takomillashib bormoqda.

Bugungi kunda dunyoning 30 dan ziyod mamlakatida saylovlar Saylov kodeksiga binoan o'tkaziladi. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda ham saylov qonunchiligini takomillashtirishga kirishildi. 2019-yilda saylovga oid beshta qonun o'rniga yagona

Saylov kodeksi qabul qilinishi jamiyatni demokratlashtirish, fikrlar xilma-xilligini qo'llab-quvvatlash hamda barqaror rivojlanish ifodasi sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur jarayon mamlakatning barcha siyosiy partiyalari, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida umumxalq muhokamasiga alohida e'tibor qaratilgani bilan ahamiyatidir. Shuningdek, Saylov kodeksini yaratishda YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi hamda Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi, chet ellik kuzatuvchilar, SHHT, MDH, IHT kabi bir qator xalqaro tashkilotlar missiyalarining O'zbekistonda o'tgan saylovlar bo'yicha tavsiyalari hisobga olingan. Zero, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki ta'minlangan adolati saylovlar demokratiyaning o'ta muhim va zarur sharti sanaladi.

Biror ijtimoiy-siyosiy hodisani ovoz berish yo'li bilan qabul qilish tarixdan ma'lum jarayon. Dunyoga tanliq arboblal liderlikka eng munosib nomzodni aniqlash xalq tanlovi orqali amalga oshirilishining afzalliklari haqida ko'p gapirgan. Jumladan, Sh.Monteskyening "Qonunlar ruhi haqida" asarida "Xalq o'ziga tegishli bo'lgan hokimiyatning bir qismini kimga topshirish darajada muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Bu yerda xalq faqat o'zi bilgan holatlar va eng aniq dalillardan foydalanadi, xolos. Agar kimdir xalqning rahbarlarni tanlash qobiliyatiga shubha qilsa, afinaliklar va rimliklar tomonidan uzluksiz, ketma-ket muvaffaqiyatli tanlangan rahbarlarga e'tibor qilsin", deyilgan. Demak, davlat rahbarining xalq tomonidan saylanishi fuqarolar xohish-irodasini aks ettirish vositasi bo'lib, mamlakatning rivojlanish dasturini belgilab berishiga shubha yo'q.

Hammasi ochiq va shaffof

Saylov oshkora va haqqoniy o'tishini ta'minlashda kuzatuvchilar ishtiroki muhimdir. Zero, ular saylov kampaniyasi boshlanganidan to yakuniy natijalar e'lon qilungacha qadar ishtirok etib, o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashib boradi. Xorijiy OAVda jarayonlar borishi muntazam yoritib borilishi esa oshkoralik muhiti yaratilishiga xizmat qiladi. Raqamlarga murojaat qilsak, mamlakatimizdagi saylov va referendumlarda ishtirok etuvchi xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar soni sezilarli darajada oshganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2015-yilda bo'lib o'tgan Prezident saylovida 296 xalqaro kuzatuvchi qatnashgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2016-yilda 555 nafarni tashkil etdi. Bu O'zbekistondagi saylovlar xalqaro hamjamiyat e'tiborini jalb qilayotgan yangi siyosiy muhit, tub o'zgarishlar va demokratik islohotlar sharoitida o'tayotgan dalolatdir.

BMTning 2005-yil 27-oktabrda e'lon qilingan Saylovlarni xalqaro kuzatish prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyasi va unga ilova qilingan Saylovlarda xalqaro kuzatuvchilarning axloq kodeksi qoidalarida asosida xalqaro tashkilotlar tomonidan turli qoidalar ishlab chiqilgan. Ular faoliyati ushbu hujjatlar va davlatlarning milliy saylov qonunchiligi bilan bog'liq normativ hujjatlarga asoslanadi. Xalqaro kuzatuvchilarning saylovlar davomida tahlil asosida e'lon qilinadigan xulosasi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelgusida takrorlamaslik uchun qonunchilikka tuzatishlar kiritish jihatidan ham davlatlarning xalqaro miqyosdagi ijobiy imijini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yurtimiz hayotidagi navbatdagi katta

siyosiy tadbir — joriy yil 9-iyulda bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi ham demokratik adolat, oshkoralik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida o'tishi uchun tayyorgarlik boshlab yuborilgan. Boisi, saylovlarning eng muhim xususiyatlaridan biri ochiqlik va oshkoralikdir. Yangi O'zbekistonda saylov qonunchiligi va amaliyoti takomillashtirib borilishi esa davlat hokimiyatini shakllantirishning samarali mexanizmiga aylanib, uning izchilligi va siyosiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilyapti.

Shu jihatdan, Markaziy saylov komissiyasi saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga doir barcha tadbirlar haqidagi ma'lumotlarni saylovchilarga ma'lum qilib borishi talab etiladi. Bu borada mamlakatimizda hech qanday inkor etuvchi jihatlarni yo'q, aksincha, barchasi oshkora bo'lishi, xalq xabaridorligini oshirish uchun tashviqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Saylovlari tashviqoti — saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Shu ma'noda, yurtimiz bo'ylab muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi komissiyalar a'zolari malakasini oshirishni tashkil etish konseptsiyasi asosida o'quv-mashg'ulotlari boshlab yuborilgan. Gap shundaki, uchastka saylov komissiyalarining qonuniylik, xolislik, adolatlilik, haqqoniylik va oshkoralik tamoyillariga qat'iy amal qilgan holda faoliyat ko'rsatishi saylovning muhim mezonlari hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytganda, bo'lajak saylov jarayoni va uning muvaffaqiyatli o'tishi har tomonlama xalqimiz xohish-irodasi va siyosiy faolligiga bog'liq holda bo'lib, tarixda qolishiga barcha asoslar yetarli.

QAROR VA IJRO

O'QISH VA DAROMAD OLIHDA QULAY MANZIL

Kasb-hunar markazlarida xotin-qizlarga shunday imkoniyat yaratilmoqda

Oila atalmish muqaddas qo'rg'on bunyod etilgach, uning asoschilari bir-biriga suyanib, hamjihatlikda ro'zg'orning kamini to'ldirib, xotirjam umr kechirish uchun zamin yaratishga intiladi. Astoydil harakat qilinsa, biror kasb orqali daromad topilsa, turmush yaxshilanib boraveradi. Shu jihatdan olganda, joylarda faoliyat yuritayotgan turli kasb va o'quv markazlari xotin-qizlarni mehnatga jalb etishda juda qo'l kelmoqda. Qamashilik Dilorom opa Aliyevaning hayotidagi o'zgarishlar bunga yaqqol misol bo'ladi.



Dilorom opa uch farzandning onasi. Turmush o'rtog'i vaqtincha ishsiz. Bunday holatda ro'zg'orni butlashning o'zi bo'lmaydi. Mavsumiy ishlardan topilgan to'rt-besh so'm pul esa yetarli emas. Shu bois, bir necha bor mahallaga ish so'rab murojaat qildi. Hokim yordamchisi bilan suhbatlashdi. Natijada "Ayollar daftari"ga ro'yxatga qo'yildi. Ammo daftarga kirish bilan ish bitmaydi. Buni hokim yordamchisi ham, Dilorom opa ham yaxshi biladi.

Shuning uchun Qamashi tumanining uchta — "Qoratepa", "Mayda", "Aziatepa" mahalla fuqarolar yig'inlaridagi hokim yordamchilari birgalikda harakat boshladi: hududdagi ishsiz xotin-qizlar bandligini ta'minlash uchun kasanachilik bo'limi tashkil etishga kirishdi.

Izlagan imkon topadi, deyishadi. Ko'p o'tmay, Qoratepa mahallasidagi sobiq kollejning bosh turgan o'quv ustaxonasi tuman hokimligi tashabbusi bilan hamkor tashkilot — "Qamashi tekstil" klaste-

riga ijaraga berildi. Natijada bu yerda joriy yilning 1-may sanasidan boshlab yuqoridagi uchta mahallaning ijtimoiy daftarlarda ro'yxatga turadigan ellik nafariga yaqin xotin-qizlari kasb-hunarga o'qitish boshlab yuborildi. Eski o'quv ustaxonasi ta'mirlanib, kerakli jihozlar o'rnatildi. Shu yerning o'zida ayollarning ham o'qib-o'rganib, ham daromad topishlari uchun sharoit yaratildi.

— Ishli bo'lish orzum edi, — deydi Dilorom Aliyeva. — Shundoqqina mahallamiz yaqinida tashkil etilgan kasanachilik bo'yicha o'qitish markazi sabab ana shu niyatimga yetdim. Bu yerda tikuvchilikka o'qib, ishlayapman. Hozir ishini astoydil o'rganish barobarida kuniga oltmish-yetmish ming so'm atrofida pul topyapman. Bundan tashqari, 700 ming so'mdan stipendiya ham berilishi bizga katta yordam bo'lmoqda.

Hozirda kasanachilik markazida tikuvchilik, qandolatchilik, novvoylik, gilamchilik, quroqchi-

lik, pazandachilik, sartaroshlik kabi kasb-hunarga o'qitish yo'lga qo'yilgan.

— Markazimizda xotin-qizlar uch oy davomida o'zlarini qiziqqan hunar bo'yicha o'qib o'rganadi, sertifikat oladi, — deydi ish boshqaruvchi Muattar Allayeva. — Shundan so'ng agar o'z xonadonida egallagan kasbi bo'yicha tadbirkorlik qilish istagi bo'lsa, ularga hokim yordamchilari ko'magida 5 milliondan 7 million so'mgacha subsidiya ajratilib, kerakli uskunalar olib beriladi. Yoki shu yerning o'zida ishlamoqchi bo'lsa, belgilangan maosh asosida faoliyat yuritishi ham mumkin.

Ayni paytda markazda hunar o'rganuvchilar safini oshirish borasida tuman hokimligi va klaster hamkorligida yangi loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, yaqinda bu yerda sutni qayta ishlash kichik zavodi ish boshlaydi. Hozir kerakli jihozlarni olib kelish uchun harakat boshlangan. Bu esa hudud aholisi ko'proq ishli va daromadli bo'lishi uchun yana bir imkoniyatdir.

Bu kabi kasanachilik markazi tashkil etgan tadbirkorlarga qator yengilliklar belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 23-fevraldagi "Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qaroriga ko'ra, 2023-yil 1-martdan 2026-yil 1-yanvargacha qadar uch oydan ortiq muddatga o'ttiz nafardan ziyod kasanachilarni belgilangan tartibda jalb qilgan va kasanachilik asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni (ko'rsatilgan xizmatlar) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari jami daromadining 60 foizdan ko'prog'ini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliqning soliq bazasi 50 foiz kamaytirildi. Bunday imtiyozlar yana bir qancha. Muhimi, buning ortidan tadbirkor faoliyati kengayib, qanchadan-qancha odamlar ishli bo'lyapti.

Keyingi paytlarda kasanachilik yo'nalishi bo'yicha nafaqat Qamashi, balki viloyatning boshqa tumanlarida ham keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, joriy yilning o'tgan davriga qadar G'uzor tumanidagi birinchi va ikkinchi kasb-hunar maktablarida, energetika va sanoat texnikumida hamda "Qovchin" mahalla fuqarolar yig'inida tashkil etilgan kasanachilik markazlarida 300 nafariga yaqin xotin-qizlari yo'nalishlar bo'yicha o'qitilmoqda.

Qashqadaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlekka ko'maklashish boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, joriy yil yakuniga qadar 440 mingdan ortiq aholi bandligini ta'minlash nazarda tutilgan. Hozirga qadar shundan 18 ming nafardan ortig'i daromadli ishga jalb qilingan. Buning uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda Jamoat ishlari jamg'armasi hisobidan sakkiz milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilgan. Kasb-hunarga o'qitish xarajatlari uchun esa 1,6 milliard so'm yo'naltirilgan. Natijada alohida ro'yxatga olingan xotin-qizlar turmush tarzi yaxshilanib, ko'ngillari shod bo'lyapti, roziligi ortyapti.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASIDA

Joriy yil 8-iyun kuni Markaziy saylov komissiyasida YXHT DIHBning muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini kuzatish bo'yicha missiyasi asosiy guruhi vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

XALQARO KUZATUVCHILAR BILAN UCHRASHUV



Uchrashuv chog'ida Markaziy saylov komissiyasi raisi Z.Nizomov javev shu kunlarda muddatidan ilgari Prezident saylovi kampaniyasi tobora qizg'in pallaga kirgani, bu mas'uliyatli jarayon Markaziy saylov komissiyasi tomonidan Saylov kodeksida belgilangan tartiblarga binoan izchillik bilan muvofiqlashtirib borilayotganini ta'kidladi. Jumladan, muddatidan ilgari Prezident saylovini o'tkazish bo'yicha kalendar rejasiga muvofiq, saylovni o'tkazuvchi 14 okrug va 10 ming 783 uchastka saylov komissiyasi shakllantirildi. Markaziy saylov komissiyasining matbuot va tezkor axborot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bugungi kunga qadar ommaviy axborot vositalarining 229 vakili akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ishlariga oshkoralik berish maqsadida tadbirlar tartibi, bosqichlari va muddatlari haqidagi axborotlar saylovchilarga hamda siyosiy partiyalarga Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalari orqali tezkorlik bilan yetkazilmoqda.

Uchrashuvda YXHT DIHBning O'zbekistonda o'tkazilgan saylovlarni kuzatish missiyalari xulosalari bo'yicha hisobotlaridagi tavsiyalarni milliy qonunchiligimizga va amaliyotimizga implementatsiya qilish, saylovga oid huquqiy bazani takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlarga alohida to'xtalib o'tildi.

Missiya rahbari elchi Ursula Yuzefa Gachek ta'kidlaganidek, DIHB missiyasi asosiy guruhi vakillari tajribali ekspertlardan, jumladan, siyosiy, huquqiy, media hamda saylov sohasidagi tahlilchilar, DIHB xodimlari va maslahatchilaridan iborat bo'ladi. Shuningdek, missiya rahbari asosiy guruh ekspertlaridan tashqari missiya tarkibiga uzoq muddatli kuzatuvchilar ham qo'shilishini bildirdi hamda YXHT DIHB o'rtasida samarali hamkorlik kengayib borayotganidan mamnun ekanini ta'kidladi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

BOSH MAQSAD – HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISH, ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATI QURISH

Siyosiy maydonda xalqchil va hayotiy g'oyalari bilan o'z o'rnini va obro'siga ega bo'lgan O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi o'z nomzodining dasturi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi oldidan Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat va barcha uchun farovonlik ta'minlangan adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning sotsial-demokratik modelini taklif etmoqda.

Hammamizga yaxshi ma'lum, yaqindagina bo'lib o'tgan referendumda xalqimiz alohida faollik, katta ishonch bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qo'llab-quvvatlab ovoz berdi. Albatta, buning zaminida katta hayotiy haqiqat, xalqimiz orzu qilgan yangi hayotni qurish maqsadi mujassam. Zero, adolatli jamiyat, demokratik, huquqiy davlat qurishga azmu shijoat qilgan el borki, avvalo, farovonlik yo'lidagi islohotlarni o'z Konstitutsiyasida aks ettirishga, bunda inson qadr-qimmatini, uning huquq va erkinliklarini barcha qadriyatlaridan ustun qo'yishga harakat qiladi.

Albatta, yangi tahrirdagi Asosiy Qomusimizning qabul qilinishi masalalarining bir qismi, xolos. Galdagi asosiy vazifa Konstitutsiyaning ustuvor talab, me'yor va tamoyillarini hayotga tatbiq etish, ulardan elimizning farovon hayoti, munosib turmush tarzini yanada yaxshilashda samarali foydalanishdan iboratdir. Toki xalqimiz Bosh Qomusimizning hayotbaxsh ruhini his etib tursin.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan O'zbekiston Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudova xalqimizning, shu jumladan, partiyaning asosiy elektorati bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar, budjet sohalari xodimlari, pedagoglar, shifokorlar, muhandis-texnik va ilm-fan, xizmat ko'rsatish sohalari vakillarining hayoti va farovonligi yanada yuqori darajaga ko'tarilishini maqsad qilgan holda, o'z dasturida qator ustuvor vazifalarni ilgari surmoqda.

Dasturda konstitutsiyaviy ahamiyatga molik tushunchalar, xususidan, huquqiy davlat, ijtimoiy adolat, milliy iqtisodiyot, ilm-fan, innovatsiyalar, ta'lim, aholi salomatligi, fuqarolik jamiyati, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini kabi ko'plab davrimiz uchun dolzarb bo'lgan yo'nalishlar qamrab olingan.

Pirovard maqsad – huquqiy davlat qurish

Dasturda alohida ta'kidlab o'tilganidek, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi uchun oliy qadriyat bu — inson, uning huquq va erkinliklaridir!

E'tiborli tomoni shundaki, dasturning deyarli beshdan bir qismini tashkil etgan birinchi yo'nalish mamlakatimizda huquqiy davlat bunyod etish mavzusiga bag'ishlangan. Sababi inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, har bir shaxsning qadr-qimmatini e'zozlash erkin va adolatli jamiyatning ajralmas xususiyatidir. Shu bois, dasturda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun, birinchi galda, sudlar mustaqilligini ta'minlash va shu maqsadda sudyalarning xalq deputatlari kengashlariga axborot berish amaliyotini bekor qilish taklifi ilgari surilgan.

Bundan ko'zlangan maqsad, avvalambor, Asosiy Qomusimizda sudlarga doir bo'lgan talablarni hayotga tatbiq etish yo'li bilan ularning chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan.

Hammamizga ma'lum, hozirda sudyalarning xalq deputatlari kengashlarida muntazam ravishda o'z faoliyati xususida bergan axborotlari davomida o'zlar tomonidan chiqarilgan sud qarorlari, ayrim paytlarda esa hali yurituvda bo'lgan va nihoyasiga yetmagan ishlar bo'yicha savol-javob qilishga majbur bo'lmoqda.

To'g'ri, deputatlarimiz ham o'z saylovchilari manfaatidan kelib chiqib savol-javob qilishi tabiiy, lekin bu, bugun biz mustaqil deb atayotgan sudlar faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashish emasmi? Bir qator ilg'or xorijiy mamlakatlarda bunday holat sudlar mustaqilligiga tahdid soladigan omil sifatida baholalanadi.

Shu bois, yangilangan Konstitutsiyamizning 130-moddasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va jiro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritilishi, 136-moddasida esa sudyalarning hisobdor bo'lmashligi qat'iy belgilanib, ularning faoliyatiga aralashish omillari bartaraf etildi.

Shu bilan birga, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan nomzod sudlarni hayotda haqiqatan adolat qo'rg'oniga aylantirishga erishish maqsadida sudyalarning



ko'paytirish, ularning ixtisoslashuvini yanada kengaytirish, jumladan, oilaviy, mehnat, intellektual mulk, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishga oid nizolar bo'yicha ixtisoslashtirilgan sudyalarning korpusini shakllantirishni taklif etadi.

Sudyalarning faoliyatidagi bunday o'zgarishlar odil sudlov sifat va samaradorligini ko'tarishga qaratilgan. Agar masalaga oddiy ko'z bilan qarasa, shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi zamonda hayotimizning barcha jabhalariga tegishli ko'plab yangi qonunlar qabul qilib borilmoqda.

Bunday vaziyatda har qanday yuqori bilim va katta tajribaga ega huquqshunos ham barcha sohalaridagi o'zgarishlarni mukammal o'zlashtirib, qamrab olishi qiyinligini inkor etib bo'lmaydi. Eng asosiysi, sud resurslaridan oqilona foydalanish, fuqaro va tadbirkorlar samsalarining oldini olish uchun sudyalarning sohalar bo'yicha ixtisoslashuvini kengaytirish zarur bo'ladi.

Masalan, oilaviy sudlar AQSH, Xitoy, Germaniya, Singapurda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Xususan, 2022-yil davomida O'zbekistonda 56 intellektual, 58 ming 403 soliq, 40 ming 198 oilaviy nizolar, 48 ming 857 voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ish ko'rib chiqilgan, bu ishlar barchasi ixtisoslashmagan sudyalarning raisligida hal etilganligi masalaga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Shuning uchun hozirda eng dolzarb hisoblanadigan sohalar, ya'ni oilaviy, mehnat, intellektual mulk, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan sudyalarning orasidan tanlab olib, ularni ixtisoslikka yo'naltirish kerak bo'ladi.

Jamiyatda qonun asosida yashash hayot tarzimizga aylanishi zarur. Buning uchun, eng avvalo, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashimiz shart. Bu borada Konstitutsiyamizda ilg'or huquqiy mexanizmlar ko'zda tutilgan bo'lib, jumladan, davlat xizmatiga ishga kiradigan har bir xodimni Konstitutsiyani bilishi bo'yicha sinovdan o'tkazish lozimligi haqidagi taklif ilgari surilgan.

Bunday tartib joriy etilishi, albatta, o'z samarasini bermay qolmaydi. Chunkinchi, Asosiy Qomusimizning qat'iy mezonlaridan xabaridor ish beruvchi rahbar hech qachon qo'l ostida ishlovchi xodimga nisbatan noqonuniy yo'l tutmaydi, shu bilan birga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'ladi. Zero, qonunlarni bilgan oddiy fuqarolar ham huquqbuzarlikdan yiroq bo'ladi. Demak, bu orqali biz mamlakatimizda huquqbuzarliklar sodir bo'lishining ham oldini olgan bo'lamiz.

Umuman olganda, partiyadan ko'rsatilgan nomzod amaldagi qonunchilikka kiritilgan ilg'or normalarni hayotimizga izchillik bilan tatbiq etishda faol qatnashishini ma'lum qilgan.

Huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri, shubhasiz, bu — insonning huquq va manfaatlari to'laqonli ta'minlanishidir. Bunda esa advokatura institutining o'rnini va roli beqiyosdir. Shu bois, yangilangan Konstitutsiyamizning XXIV bob 141-142-moddalarida advokatlar maqomi mustahkamlanib, ularning prokuror bilan teng konstitutsiyaviy maqomga ega ekanligi qayd etilgan nihoyatda ahamiyatlidir. Shu bilan bir qatorda, advokatura institutini rivojlantirish borasida navbatdagi qadamlarni qo'yishda, jumladan, ular uchun huquqiy me'yorlarda belgilab berilgan vakolat va imkoniyatlar hayotga to'laqonli tatbiq etilishida O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzodning o'z qarashlari bor, albatta.

Bu maqsadga erishish uchun advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish joiz. Ayniqsa, advokatura, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvini yanada yaxshilash choralari ko'rish taklif etilmoqda.

Shuningdek, dasturda kam ahamiyatli xatolar uchun notariuslar faoliyatini to'xtatib turish amaliyotiga barham berish, birinchi marotaba yoki qo'pol bo'lmagan xatolar uchun notariuslarga jarima qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish taklif etilgan. Chunki hududlarda shusiz ham yetarli bo'lmagan notariuslarning faoliyati vaqtincha to'xtatib turilishi orqasidan oddiy fuqarolar turli ovoragarchiliklarga duch kelmoqda. Bu, o'z navbatida, ularning haqli noroziliklariga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi mahalliy ijroiya hokimiyati organlari ustidan deputatlik nazoratini kuchaytirish orqali xalq deputatlari mahalliy kengashlarining rolini oshirish tarafdori. Ushbu yo'nalishda partiya davlatda boshqaruv intizomini saqlab qolish maqsadida xalq deputatlari

ega bo'lmagan fuqarolarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish choralari ko'rish belgilangan. Jumladan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va bu yo'nalishda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Ijtimoiy davlat — 2030" dasturini ishlab chiqish taklifi ilgari surilmoqda.

Aholi salomatligi — ulkan boylik

Nomzod davlat hisobidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalari ro'yxatini takomillashtirish, ijtimoiy dorixonalarni rivojlantirish, og'ir kasalliklarni davlat tomonidan davolashni kengaytirishni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuvlar ortidan bormolarga haddan ziyod ko'p dori sotib olishga undash avjiga chiqib ketganligi bor gap va bu salbiy holat barchamizni tashvishga solmoqda.

Afsuski, O'zbekiston antibiotiklar iste'moli bo'yicha jahonda yetakchi o'rnlarga chiqib ketdi. Tibbiyot muassasalaridagi

hamda onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda juda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod davlat tibbiyot tashkilotlarini tijorat tashkilotidan notijorat tashkilotga o'tkazish bo'yicha amaliy choralarni ko'rish tarafdori. Bunda xususiy tibbiyot muassasalarining ham pirovard maqsadi faqat daromad olish emas, balki raqobatbardoshlik muhitida aholiga sifatli va kafolatli tibbiy xizmat ko'rsatishga qaratilgan bo'lishi lozim. Zero, insonning eng katta boyligi bo'lgan salomatligini saqlashga qaratilgan tibbiyot daromad olish manbaiga aylanmasligi kerak.

Ta'lim rivoji — taraqqiyotimizning kafolati

Ma'lumki, yangilangan Konstitutsiyamizning 52-moddasida davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy jihatdan farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi haqidagi norma o'z aksini topdi.

Shundan kelib chiqib, nomzod dasturida o'qituvchining obro'-e'tibori — bu avvalo, millatning, butun xalqning obro'-e'tibori ekaniga alohida urg'u berilgan. Partiya pedagog xodimlarning nufuzini oshirish hamda yuksak maqomini belgilash orqali ularning jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy choralarni ko'rish tarafdori. Shu maqsadda o'qituvchining maqomiga oid qonunning tezroq qabul qilinishi dasturda ustuvor masala sifatida e'tirof etilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichida zamonaviy ilm-fan texnologiyalarining tatbiq etilishi muhim rol o'ynaydi. Shu bois, nomzod 2024/2025-o'quv yilidan boshlab, oliy ta'lim muassasalarining bakalavrlari yo'nalishiga kirish uchun ingliz tilini bilish bo'yicha milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lish tartibini joriy etishni taklif qiladi. Bu, o'z navbatida, talaba yoshlarimizning xalqaro darajada raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Dasturda ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali fan — ta'lim — ishlab chiqarish tizimlarining uzviy aloqadorligini ta'minlash lozimligi qayd etilgan. Darhaqiqat, adolatli jamiyat va huquqiy davlat barpo etishda ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalarning ahamiyati beqiyos. Shu sababli, dasturda nafaqat olimlarni, balki ixtiro va ixtirochilarni ham qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va ularga zarur shart-sharoitlar yaratish lozimligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, intellektual mulk obyektlarini himoya qilish, mualliflik huquqlari buzilishi holatlariga nisbatan davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, iqtisodiyotning haqiqiy drayveri bo'lgan muhandis, texnolog, agronom-mexanizator kabi mutaxassislar sonini ko'paytirish va malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash choralari ham ustuvor vazifalar sifatida keltirib o'tilgan.

Mamlakatimizda ilmiy tadqiqotlardan olingan joriy natijalarni tibbiyot va sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi va biotexnologiyalar, gidrologiya va suv muammolari, energetika, muqobil energiya manbalari va resurtejamkor texnologiyalar, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kabi sohalariga joriy qilish ishlarini izchil olib boshir orqali davlatning iqtisodiy qudrati yanada mustahkamlanadi, albatta.

Milliy iqtisodiyotimizning barqaror o'sishi — farovon hayotimizning kafolati. Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda iqtisodiyotning real sektorida ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasi, ilm-fan, ta'lim va sanoat o'rtasidagi hamkorlik aloqalari nisbatan past bo'lib qolmoqda.

Shu bois, dasturda mamlakatimizda innovatsion rivojlantirishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalarni va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitalini ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish yo'lidan borish lozimligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda respublikamizda qayta tiklanuvchi energiya manbalariidan foydalanish yuzasidan keng ko'lami ishlar amalga oshirilib, sohada samarador loyihalar ishga tushirilmoqda. "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod muqobil energiya manbalari va resurtejamkor texnologiyalardan foydalanish sohalarini yanada takomillashtirish orqali dori-darmonlarning noqonuniy aylanmasiga, farmatsevtika va tibbiyot xodimlari o'rtasidagi yashirin kelishuvlar hamda dorilar narxining asossiz oshirilishiga chek qo'yiladi.

Dasturda sog'liqni saqlash tizimini ijtimoiy davlat tamoyiliga muvofiqlashtirgan holda "O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash kodeksi" loyihasini yanada takomillashtirish, unda sog'liqni saqlash sohada inson huquqlariga rioya qilish, aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'lishini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Zero, aholining kafolatlangan tibbiy xizmatlardan foydalanishi yangilangan Asosiy Qomusimizda ham o'z aksini topgan. Bu aholi sog'ligini ishonchli muhofaza qilish

Tabiiyki, respublikamizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ilmiy asosda tashkil etish, fan va amaliyotning o'zaro uyg'unligini ta'minlash yaqin kelajakda O'zbekistonning agrar sohadagi ulkan imkoniyatlarini ro'yoga chiqarishda, qishloq iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda, kambag'allik muammolarini hal etishda ijobiy natijalar beradi.

Biroq bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida ob-havoning keskin o'zgarishi, suv tanqisligi, yer sho'rlanishi kabi xatarlar ortib bormoqda. Bu esa qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar hamda jismoniy salomatligi katta muammolaridan biriga aylanmoqda.

Nomzod qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish tarafdori. Bu borada nomzod dasturida qishloq xo'jaligida sug'urtalash tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish, jumladan, "Qishloq xo'jaligi tavanakkachiliklarini sug'urtalash to'g'risida"gi qonuni qabul qilish taklifi ilgari surilyapti.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 67-moddasida monopoliy faoliyat qonun bilan tartibga solinishi va cheklanishi alohida belgilab qo'yilgan bejiz emas, albatta. Zero, iqtisodiyot faqat erkin raqobat muhitidagina rivoj topadi.

Nomzod ijtimoiy obyektlar va eng muhim strategik obyektlarda davlat mulkini saqlab qolish tarafdori, lekin bunda fuqarolarga tanlov imkoniyatini beradigan xususiy sektor ham rivojlantirilishi kerak, deb hisoblaydi. Shundagina ijtimoiy adolat ta'minlangan bo'ladi.

Shu bilan birga, partiya ijtimoiy ahamiyatga molik, fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati uchun yanada qulay sharoitlar yaratish hamda homiylik faoliyatini kuchaytirish tarafdoridir.

Fuqarolik jamiyati — demokratik taraqqiyot asosi

Nodavlat notijorat tashkilotlarining sog'liqni saqlash, ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida muammolarni hal qilishdagi faol ishtiroki partiyaning doimiy diqqat-e'tibori markazida bo'ladi. Zero, kishilik taraqqiyoti hamisha kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari olg'a yurishdan iborat bo'lgan. Shunday ekan, mamlakatimiz fuqarolarining turli nodavlat notijorat tashkilotlarida faoliyat yuritishi ayini paytda ularning huquqiy, siyosiy, ma'rifiy bilim oshishiga, ma'naviyati yuksalishiga, vatanparvarlik tuyg'usi kuchayishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, aholining ma'naviy yuksalishi va moddiy farovonligi ortishi uchun partiya o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining, jumladan, mahallalarning taraqqiyot etishini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, dasturda OAV mustaqilligi va erkinligi, jurnalistning erkin faoliyatini yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yanada kengaytirish oldimida turgan muhim vazifalardan biri ekan alohida qayd etib o'tilgan.

Albatta, erkin matbuotni jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Ommaviy axborot vositalari hamma zamondalar ham xalq va hokimiyat o'rtasidagi ishonchli ko'priklarni qurib qolishi lozim.

Olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarning ochiq va oshkorligini ta'minlashda OAVning faolligini yanada oshirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini ustidan jamoatchilik nazoratini, hokimiyat va jamoatchilikning izchil o'zlashtirish ta'minlashda uning rolini kuchaytirish, moddiy-texnik bazasini yangilash, uni texnologik modernizatsiya qilish, jurnalist kasbi nufuzini oshirish, soha xodimlarining mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish masalalari ham dasturdan o'rin olgan.

Nomzod dasturida shu va shu kabi ko'plab ahamiyatga molik oliyanob va ezgu maqsad-vazifalar belgilangan. Ular adolatli jamiyat va huquqiy davlat qurishga — ijtimoiy islohotlar samaradorligini ta'minlash, mehnatkash xalqimiz uchun munosib farovon hayotni barpo etish, mamlakatimizda barqarorlikka va ijtimoiy adolat ustuvorligiga erishishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Ishonamizki, partiyaning bunday ulug'vor maqsadlari saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi!

O'zbekiston — buning umumiy yuqum. Shunday ekan, uning har bir fuqarosi erkinlik va adolat, tinchlik va farovonlikda yashashga haqlidir!

Adolatli jamiyat va huquqiy davlatni birgalikda quramiz!

Ona Vatanimizning barcha fuqarolarini Prezident saylovida faol ishtirok etishga chaqiramiz!

Bahrom ABDUHALIMOV,
"Adolat" SDP
Siyosiy Kengashi raisi



“ADOLAT” SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI

PARTIYA DAVLAT HISOBIDAN KO'RSATILADIGAN TIBBIY XIZMATLAR VA DORI VOSITALARI RO'YXATINI TAKOMILLASHTIRISH, IJTIMOIY DORIXONALARNI RIVOJLANTIRISH, OG'IR KASALLIKLARNI DAVLAT TOMONIDAN DAVOLASHNI KENGAYTIRISHNI QO'LLAB-QUVVATLAYDI.

viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatlari hokimlarga nisbatan ishonchsizlik bildirish huquqiga ega bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.

Ijtimoiy adolatni qaror toptirish yo'lida

An'anaviy sotsial-demokratiyaning ijtimoiy adolat tamoyili va keng ko'lami dasturlarining amalga oshirilishini ta'minlaydigan kuchli ijtimoiy davlat siyosatini qo'llab-quvvatlayotgan O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi barcha sohalarida ijtimoiy adolatni qaror toptirishni o'zining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etadi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda har kimning uy-joyli bo'lish huquqi belgilangan. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o'z boshpanasiga ega bo'lishini ta'minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikning hech kim suning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joydan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joydan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarining o'rnini qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta'minlanishi kafolatlanmoqda.

Nomzod dasturida mazkur konstitutsiyaviy qoidani ta'minlash uchun o'z daromadi bilan uy-joyli bo'lish imkoniyatiga



“ADOLAT” SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA NOMZOD ROBAXON MAHMUDOVAGA OVOZ BERING!

YENGIL VA UNUMLI

Zamonaviy qurilish mahsuloti ana shu jihati bilan tobora ommalashmoqda

YANGICHA YONDASHUVLAR

“ Samarqand, Sirdaryo, Namangan va boshqa hududlarda metalni qayta ishlash bo'yicha 19 ta yirik loyiha amalga oshirilgan. Namanganda tashkil etilgan 54 ta yangi kichik sanoat zonasida 2022-yilda 3 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Dilshod ULUG'MURODOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Mamlakatimizda so'nggi paytlarda yaxshilanib borayotgan investitsiyaviy muhit, tadbirkorlarga taqdim etilayotgan yengilliklar tufayli Sirdaryo viloyatida ham o'nlab yangi ishlab chiqarish subyektlari, yirik sanoat korxonalari paydo bo'lyapti. Natijada hududda ilgari bo'lmagan qurilish materiallari, farmatsevtika, charm, oziq-ovqat sanoati kabi yangi tarmoqlar rivojiga keng yo'l ochilmoqda. Xususan, viloyatda qurilish materiallari ishlab chiqarish yo'nalishida 274 ta loyiha amalga oshirildi. Bugungi kunda tarmoq hudud iqtisodiyotining drayveriga aylanyapti, desak xato bo'lmaydi. Ayni paytda viloyat sanoatida mazkur soha ulushi 7 foizdan oshgani buning tasdiq'idir.

Shu yil aprel oyida viloyatda 6 ta yangi korxonalar — “River med farma”, “Yevroaziya gaz beton”, “Modern marbel”, “Peng Sheng charm”, “Toshkent siti gold blok” hamda “Inter treyding-grup” mas'uliyati cheklangan jamiyatlari ishga tushirilgan edi. Yaqinda biz ana shu-lardan biri — “Yevroaziya gaz beton” MCHJda bo'lib, uning faoliyati bilan yaqindan tanishdik, korxonalar ishchi-mutaxassislari bilan suhbatlashdik.

Korxonalar darvozasiidan kirib borar ekansiz, hovlidagi saranjomlik e'tiborni tortadi. Vaholanki, ayrim shunday ishlab chiqarish hududlarida aynan shu narsa yetishmaydi. Ishqat'iy tartib va intizom asosida olib boriladi. Shunday bo'lmasa, ish yurishmaydi, belgilangan reja vaqtida bajarilmaydi. Jamoa bunga qat'iy amal qiladi.

Kichik bir e'tiborsizlik ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini, butun bir faoliyatga salbiy ta'sir qilishi mumkin, — deydi korxonaning aynan shu jihatlarga mas'ul xodimi, turkiyalik mutaxassis Sinan O'g'uz Terzi. — Mahsulot o'li bosqichda tayyor holga keladi. Ya'ni, avvalo, qum tegirmonda maydalanadi, keyin sement, ohak va gips bilan aralashiriladi, qorishma tayyorlanadi. Shundan so'ng yarim tayyor mahsulot qoliplanib, kerakli hajmda kesiladi, pechkada quritiladi, oxirida esa qadoqlanadi. Bular uchun 15 soat vaqt ketadi.

E'tiborlisi, sement, ohak, gips va qum kabi zarur xomashyoning 99 foizi O'zbekistonda mavjud. Faqatgina aluminium kukuni boshqa davlatlardan keltiriladi. Lekin u gazobeton uchun unchalik ko'p ishlatilmaydi.

Zavodning yillik ishlab chiqarish quvvati 432 ming metr kub bo'lib, loyihaning maqsadi yurtimizda gazobeton

mahsulotlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil qilishdir.

— Loyihamizning umumiy qiymati 28,9 million dollar bo'lib, shundan 15,4 million yevro va 928 ming dollari “Mikrokreditbank” ATB tomonidan ajratilgan kreditdir, — deydi korxonalar mutaxassis Sherzod Vafoyev. — Korxonada 150 ta yangi ish o'rni yaratilgan, bu yerda o'ziga xos gorizontal kesish texnologiyasi asosida mahsulot tayyorlanadi. Bunda Niderlandiyadan keltirilgan zamonaviy texnologiya qo'l kelmoqda. Oldinda ish faoliyatimizni kengaytirishga doir yangi rejalarimiz bor. Ularni ro'yoga chiqarishda ishga berilgan insonchilik va qo'llab-quvvatlov katta kuch beradi deb o'ylayman.

Darhaqiqat, loyiha pishiq-puxta bo'lsa, amaliy natijasi ham samarali bo'ladi.



Shu jihatdan ushbu loyihani istiqbolli, desak arziydi. Negaki, bugungi kunda dunyo qurilish sanoatida resurstejamkor, unumli va zamonaviy mahsulotlarga talab tobora ortib bormoqda. Xususan, g'isht o'rniga gazobetonidan foydalanish keng ommalashgan.

Shu o'rinda mazkur qurilishbop mahsulotga bir oz izoh berib o'tsak. Gazobeton g'ovak betonning bir turi bo'lib, zamonaviy qurilish materiali hisoblanadi. Uni “sun'iy tosh” deb ham atashadi. Oddiy betondan farqi shuki, tuzilishida 1-3 millimetrlilik pufaklar mavjud, ular tufayli beton yengil, yetarli darajada mustahkam, issiq va sovuqdan yaxshi himoyalash xususiyatlariga ega bo'ladi.

Bir metr kub g'isht 1800-2000 kilogramm tosh bossa, shu hajmdagi gazobetonning og'irligi esa atigi 500-700 kilogramm keladi, xolos. Ayni shu omil zilzilada xavfsizroq hisoblanadi, talafot kamroq bo'lishini ta'minlaydi.

Qolaversa, u pishgan g'ishtdan ancha yirik. Bu esa qurilishda ish unumdorligini oshiradi. Shuningdek, tayyorlash jarayonida tabiiy gaz 8-marta kam sarflanadi, energiyatejamkor. Eng asosiysi, unumdor tuproqning ishlatilmasligi bilan pishiq g'ishtdan bir necha marotaba afzaldir.

Mana, nima uchun ushbu mahsulot xaridoru quruvchilari e'tiboriga tushmoqda. Bozorbop, qurilishbop, zarur tovarga aylanmoqda.

Parallel rivojlanish yangi loyihalarga yo'l ochadi

Bunyodkorlik ishlari kengaygani sari qurilish materiallariga ehtiyoj ham ortib boraveradi. O'zbekistonda bugun mana shu ikki tarmoq parallel rivojlanmoqda. Ya'ni qurilish bor, shunga yarasda yangidan-yangi sanoat korxonalari barpo etilyapti. Bu borada joriy yil 10-yanvar kuni sanoatni rivojlantirish hamda qo'shimcha zakiralarni aniqlash masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham alohida ta'kidlandi.

Mamlakat iqtisodiyoti va aholi bandligida sanoat juda katta o'rin tutadi. Bu sohaga zarur sharoit yaratish maqsadida so'nggi yillarda 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonasini tashkil etildi, ularning infratuzilmasiga 10 trillion so'm yo'nalirildi. Shuningdek,

to'qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, charm, farmatsevtika, elektr texnikasi kabi tarmoqlarni drayverga aylantirish uchun 3 milliard dollar moliyaviy resurs ajratilgani aytilgandi o'sha yig'ilishda.

Natijada oxirgi besh yilda sanoat korxonalarini soni 2 barobar ko'payib, 100 mingtaga yetdi, ishlab chiqarish hajmi 1,4 barobar oshdi.

Bu hududlar rivojiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Jumladan, Jizzaxda ilgari bo'lmagan qurilish materiallari, avtomobilsozlik, oziq-ovqat sanoati kabi yangi tarmoqlar paydo bo'ldi. Birgina qurilish materiallari bo'yicha 220 ta loyiha ishga tushirilib, viloyat sanoatida bu sohaning ulushi 20 foizdan oshdi.

Samarqand, Sirdaryo, Namangan va boshqa hududlarda metalni qayta ishlash bo'yicha 19 ta yirik loyiha amalga oshirilgan. Namanganda tashkil etilgan 54 ta yangi kichik sanoat zonasida 2022-yilda 3 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

“O'z sanoat qurilish materiallari” uyushmasi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning birinchi choragida jami 5,1 trillion so'mlik qurilish materiallari ishlab chiqarilgan. Uyushma tarkibidagi korxonalar tomonidan tayyorlangan sanoat mahsulotlari qiymati esa 2 trillion 158,7 milliard so'mni tashkil etgan.

Ichki bozorda qurilish materiallarining narxi, xususan, sement bahosi keskin oshib ketishining oldini olish maqsadida birja savdolariga kunlik rejadagi 32 ming tonna o'rni 40 ming tonna sement qo'yilmoqda. Birja savdolarida bir oy muddatga kechiktirgan holda sement yetkazib berish bo'yicha forvard savdo

turi joriy etildi. Birjadan sotib olinadigan sementni avtomobil transportidan foydalanilgan holda yuklab jo'natish muddati 2020-yil 1-iyuldan boshlab 10 kundan 5 kungacha qisqartirildi.

Ichki bozorda sement narxi barqarorligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori asosida import sement olib kirish tartibi soddalashtirildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi 2023-yil 23-fevraldagi farmoyishi bilan 2023-yilda sement ishlab chiqarish va iste'mol qilish balansining parametrlari tasdiqlandi. Unga ko'ra, joriy yilda 17 million tonna sement ishlab chiqarish va shundan 7,6 million tonnasini birja savdolari orqali sotish belgilangan.

Bugungi kunda birja savdolarida 1 tonna sementning o'rtacha narxi 654,5 ming so'mni, 1 kvadrat metr qurilish oynasining narxi 47,5 ming so'mni, 1 dona shifer narxi esa 55 ming so'mni tashkil etmoqda.

Qurilish materiallari eksporti geografiasini an'anaviy hisoblangan bozorlar, ya'ni Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikistondan tashqari Ozarbayjon, Turkiya, Kanada, Ruminiya hisobiga kengaygan.

Qurilish jarayonida energiyatejamkor, innovatsion qurilish materiallaridan foydalanish bino-inshootning tanarxi arzon bo'lishi hamda qurilish ishlari tez, sifatli amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotgani bor gap.

Obyekt devorlarini ko'tarishda, asosan, pishgan g'ishtdan foydalanilganda, so'nggi yillarda ishlab chiqarilayotgan yangi turdagi mahsulotlar ushbu materialdan foydalanishni kamaytirishga olib kelmoqda. Mutaxassislar fikricha, pishiq g'ishtdan qurilgan uy yaxshi, lekin qurilish narxi qimmatga tushadi. Qolaversa, qurilish muddati uzoq bo'lib, bino fasadi suvoq talab qiladi. Bu suvoq yillar o'tib, yorilishi, tushishi oqibatida bino ko'rinishi xunuklashib qolishi mumkin. Qaytdan ta'mirlash esa yana xarajat talab qiladi. Shuning uchun g'isht o'rni bosa oladigan pishiq, arzon va qurilish ishlari muddatining qisqarishiga xizmat qiluvchi, istalgan muddatda ham bino fasadining buzilishiga yo'l qo'ymaydigan material topishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ya'ni zamonaviy bunyodkorlik zamonaviy mahsulotlarni talab etyapti.

INSON QADRI UCHUN

ENDI YO'LLAR RAVON BO'LADI

Erta tongdan yuk mashinalari shovqinidan uyg'ongan Oynisa aya yu yonidagi tuproq ko'chaga suv sepishga oshiqdi. Har kuni shu ahvol, suv sepmasa, mashinalar qatnovidan ko'tarilgan chang-to'zon uyiga yopiriladi. Yog'ingarchilik kunlari esa loy ko'chada qadam bosib bo'lmaydi. Shu o'ylarda suv to'la chelagini ko'targancha darvoza eshigini ochar ekan, ko'z oldida bo'layotgan ishlarga tushunmay, bir oz qarab qoldi. Bir nechta yuk mashinasi yo'lga shag'al to'kyapti, yo'lsolar esa allaqachon ishga kirishgan.

“Shu haftaning o'zida ko'chamiz asfalt bo'ladi”. Mas'ullarning va'dalarini ko'p eshitaverib, yo'l ta'mirlanishiga ishonmay qo'ygan Oynisa aya mahalla raisidan bu gapni eshitganda, bugungi kun kechagi kun emasligini, aytilayotgan so'zlar amalda o'z ifodasini topayotganini his etdi.

Bugun Navoiy viloyatida yo'l qurilishi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar salmoqli. Hududlarda umumfoydalanishdagi va ichki ta'mirlal bo'lgan bosqichma-bosqich, zamon talablari asosida beton qoplamali yoki asfalt yo'llarga aylantirilmoqda. Aholini yillar davomida qiynab kelayotgan muammo o'z yechimini topmoqda.

Jumladan, Navbahor tumanida 4R-57 umumfoydalanishdagi avtomobil yo'lining 8 kilometr qismida qurilish va rekonstruksiya ishlari bormoqda. O'ndan ortiq maxsus texnika hamda 30 ga yaqin ishchi-xodim yo'lini kengaytirish, piyodalar yo'lga qurish, tunji yoritkichlar o'rnatish va ko'rkam gulzor yaratish bilan band. 4R-57 avtomobil yo'lida boshlangan ishlarni joriy yil yakunigacha to'liq nihoyasiga yetkazish ko'zda tutilgan.

— Bu yo'lning eni 9 metr edi. Hozir yo'lni kengaytirish natijasida asfalt qoplamaning eni 19 metrga yetmoqda, qo'shimcha yana eni 3 metrlik piyodalar yo'lakchasi qurilmoqda. Ayni vaqtda ta'mirlanishi rejalashtirilgan 8 kilometr yo'lning 4 kilometrini foydalanishga topshirish arafasidamiz. Qolgan qismida asfaltlashtirish va piyodalar yo'laklariga beton qoplamalarni yotqizish ishlari davom etmoqda, — deydi “Navoiy yo'llardan mintazam foydalanish” unitar korxonasi yo'l bo'limi boshlig'i Rustam Xudoyqulov.

Navbahor tumanidan o'tuvchi Qalqonota-Sarmish 4N-361 umumfoydalanishdagi yo'lning 5 kilometr qismidagi joriy ta'mirlash ishlariha tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasining 30 ga yaqin ishchi-xodimi hamda 20 dan ortiq maxsus texnika jalb etilgan. Loyiha qiymati 5 milliard 300 million so'm. Bu yo'lning ravon bo'lishi sayyohlik salohiyatiga ega hududga tashrif buyuradigan mahalliy hamda xorijiy sayyohlarning xavfsiz harakatlanishi uchun ham qulaylik yaratadi.

O'tgan 2022-yilda Navoiy viloyatida



davlat dasturlari doirasida 1128 kilometr avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari bajarish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 1162 kilometr yo'l ta'mirlandi. Jumladan, investitsiya dasturi doirasida umumiy foydalanishdagi 6 ta avtomobil yo'lida pudratchi korxonalar tomonidan 106 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Shu bilan birga, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlari doirasida 58,6 milliard so'm hisobiga 186 kilometr ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlash bo'yicha pudrat tashkilotlarini aniqlash uchun tender savdolar o'tka-

zilib, shartnomalar tuzildi va ushbu tashkilotlar tomonidan 189 kilometr yo'l joriy ta'mirlandi. Shundan 41,7 kilometr yo'l asfalt, 32 kilometr sement-beton qilindi, 116 kilometriga shag'al to'kildi.


Navoiy viloyatida umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash dasturi uchun ajratiladigan mablag' hisobidan 258 kilometr yo'lning holatini yaxshilash ko'zda tutilgan bo'lib, joriy yilning o'tgan davrida 143 kilometr yo'l-larda ta'mirlash ishlari bajarildi, 585 kilometr yo'lga yo'l yotiq chiziqlari chizilib, intensiv nur qaytaruvchi 324 dona yangi yo'l belgisi o'rnatildi.

— Anomal sovuq va yog'ingarchiliklardan keyin shahar ko'chalarida avtotransportda yurish qiyin bo'lib qolgan. Yo'llardagi o'ydim-chuqurlar yo'qotilayotganidan xursandamiz, — deydi haydovchi Javohir Toshmurodov.

Bosqima-bosqich davom etayotgan ta'mirlash ishlari bois, qishloqlardagi tuproq yo'llardan ko'tarilgan chang endi Oynisa aya kabi fuqarolarni bezovta qilmaydi, avtomobillar chuqurlarga tushmaydi.

Muhimi ham shu, aslida! Xalqni rozi qilish, ularga munosib turmush sharoiti yaratish, zamonaviy infratuzilma barpo etish inson qadri uchun tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir.

G'olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Ayollari shodon yurtida BAXTLI AVLOD ULG'AYAR

“TARAQQIYOT STRATEGIYASINI “INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI” DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURIDA HAM BU BORADA MUHIM CHORA-TADBIRLAR BELGILANGAN. JUMLADAN, OG'IR IJTIMOY AHVOLGA TUSHIB QOLGAN 75 MING ISHSIZ XOTIN-QIZNI DAVLAT HISOBDAN MEHNAT BOZORIDA TALAB YUQORI BO'LGAN KASB-HUNARLARGA O'QITISH REJALASHTIRILGAN. HOZIRGACHA ULARDAN 31,2 MING NAFARI O'QIB, TEGISHLI KASB MALAKASIGA EGA BO'LDI.



Nodira EGAMBERDIYEVA, “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Xotin-qizlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shu maqsadda o'tgan yili 872 mingdan ortiq xotin-qizning bandligini ta'minlangani, 250 mingdan ziyodi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitilgani muhim omil bo'ldi. O'tgan yili 14 mingga yaqin ayolning uy-joy sharoiti yaxshilandi. “Ayollar dasturi” doirasida saltan 642 ming xotin-qizga amaliy yordam ko'rsatildi.

Bandlik dasturi: global muammolar va milliy yechimlar

Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasi aholi bandligi bilan o'chkanadi. Bu jarayonda ayollar bandligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ammo bu ko'rsatkich bo'yicha dunyodagi ijtimoiy holatni yaxshi deb bo'lmaydi. Ya'ni dunyoda mehnat munosabatlari ishtirok etayotgan 40 foiz ayol turli sabablarga ko'ra ijtimoiy himoyaga ega emas. Bu global muammoning yechimini topish jahan hamjamiyati oldidagi dolzarb vazifadir.

Dunyoda nafaqat xotin-qizlar bandligini ta'minlash, balki barcha sohalarida gender tenglikka erishish, mehnat bozorida kamsitishlarga barham berish va ish haqi tengligini ta'minlash kabi masalalar dolzarblashib borayotgan bir paytda O'zbekistonda ularning yangi kasblarni o'rganish imkoniyati kengaymoqda. Hozir

opa-singillarimizning nafaqat an'anaviy, balki zamonaviy yo'nalishlarda, ya'ni mobil telefon, internet, videoqo'llanmalar orqali mustaqil ta'lim olish, hunar o'rganish ko'rsatkichi ham oshib bormoqda. Bu yo'nalishda ayollarimizning zamonaviy intellektual mehnatga asoslangan kasblarga, masalan, reklama bo'yicha mutaxassis, infobiznes, elektron tijorat kabi sohalarini o'rganishga qiziqishi yuqori.

Albatta, bu natijalar kishini quvontiradi. Zero, mamlakatimiz mehnat resurslarining 45 foizi ayollar hissasiga to'g'ri kelishini nazarda tutsak, ijtimoiy masalalarning aksariyati ular hayoti bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, yurtimizda faol tadbirkorlikni rag'batlantirish, investitsiyaviy iqlim va ish-bilarmonlik muhitini yaxshilash orqali yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan izchil chora-tadbirlarning samarasi beqiyos.

Bu borada “Ishga marhamat” monomarkazlari hamda kasb-hunarga o'qitish markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgani ayni muddao bo'ldi. Bu o'quv markazlarida bitiruvchilarning kasbiy malakasini “WorldSkills” standartlari asosida baholash, baholashdan muvaffaqiyatli o'tgan bitiruvchilarga “Skills” pasportini berish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Respublikamizda har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilmoqda. “Ayollar dasturi” bo'yicha har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida aniq maqsadli reja asosida ishlanyapti. Mahallada ayollar muammolarini hal etishga ko'maklashadigan xotin-qizlar faoli lavozimi joriy etildi.

Prezidentning “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonida ayollar ishsizligi darajasini ikki barobar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish, ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi belgilangan. Bundan tashqari, kasb-hunarga o'qitish ko'lamini ikki barobar oshirish, bir million ishsiz fuqarolari kasb-hunarga o'rgatish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarini ishtirokini 30 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, 2023-yilda 5 million aholi bandligini ta'minlash, 2 million doimiy ish o'rni yaratish masalasi ham kun tartibida turibdi.



Bu chora-tadbirlarni o'z vaqtida jiro etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Ishsiz ayollarning uchdan bir qismi hech qayerga murojaat qilmagan

Shu o'rinda yurtimizda ayollar bandligini ta'minlash bo'yicha barcha sharoitlar yaratilayotganiga qaramay, nega hamma ham bu imkoniyatdan foydalanishga intilmayapti, degan savol tug'lishi tabiiy. Buni barcha xotin-qizlarda ham mehnatga munosabat aniq shakllanmagan, yuqori professional malakali mutaxassis xotin-qizlar kamligi, ayollarning ijtimoiy foydali mehnatga nisbatan munosabatidagi stereotiplar hanuz saqlanib kelayotgani bilan izohlash to'g'riroq bo'ladi. “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti ana shunday muammolarga yechim topish, ishsiz ayollar bandligini ta'minlashning yangi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida qator mahallalardagi ishsiz xotin-qizlar, shuningdek, ekspertlar o'rtasida so'rov o'tkazdi. So'rov natijalaridan ma'lum bo'lishicha, ish-

ayollari vaqtining 22 foizini uy yumushlari va bola parvarishiga sarflaydi. Bu ish haqi ta'lanmaydigan mehnat hisoblanadi. Erkaklar esa vaqtining to'qqiz foizini uy yumushlariga ajratadi. Xalqaro mehnat tashkiloti umumiy muvozanatni ta'minlash uchun gender omillarni hisobga olgan holda davlat strategiyasiga ehtiyoj borligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, ayollar uchun muhim ish generatorlari bo'lgan sog'liqni saqlash, ijtimoiy ish va ta'lim sohalariga investitsiya qilish juda muhimdir.

Jahondagi ilg'or tajribalar

Ishchi kuchi, jumladan, ayol ishchi kuchidan samarali foydalanish zamonaviy rivojlanishning muhim shartidir. Zero, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida ayollar faolligi ortishi oila uchun ham, jamiyat uchun ham foydali. Buni qator xalqaro tahlil markazlari xulosasi ham tasdiqlaydi. Masalan, “Boston consulting group” tahlilchilari fikricha, ayollarni tadbirkorlikka erkaklar bilan teng ravishda jalb qilish orqali jahon yalpi ichki mahsulotini taxmi-



siz ayollarning uchdan bir qismi mutasaddi tashkilotlarga murojaat qilmagan.

Shuningdek, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ekspertlari tahlilida ko'rsatilishicha, O'zbekiston xotin-qizlarining iqtisodiy faolligi pastligi, avvalo, ularning uy-rov'ozg'or ishlari va bola parvarishida to'liq band ekani bilan bog'liq. O'zbekiston

nan 3-6 foiz, jahon iqtisodiyotiga kirayotgan tushumlarni esa 2,5 trillion dollardan 5 trillion dollargacha oshirish mumkin. Shu bois, taraqqiyotgan davlatlarda barcha sohalarida ayollar faolligini oshirishga ustuvor ahamiyat beriladi. Xususan, xotin-qizlarning ta'lim olishi, zamonaviy kasblarga o'qitishda zarur shart-sharoitlarni yaratish,

gender tenglik dasturida ham bu borada muhim chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan 75 ming ishsiz xotin-qizni davlat hisobidan mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish rejalashtirilgan. Hozirgacha ulardan 31,2 ming nafari o'qib, tegishli kasb malakasiga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, kasb-hunarga o'qitish markazlarida o'qitilgan, malakaga ega bo'lgan xotin-qizlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilishi uchun ular faoliyatiga subsidiya va imtiyozli kreditlarni jalb etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, o'lis va chekka hududlarda istiqomat qilayotgan, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta'minlaydigan tadbirkorlik subyektlari uchun 50 million so'm miqdorida grant loyihalar amalga oshirilayapti. Bunday muhim loyihalar ayollar bandligini ta'minlash, oilalar farovonligini oshirishga xizmat qilayotir.

Ijtimoiy o'qitish va ta'lim bo'yicha chora-tadbirlari xotin-qizlarning oliy ta'lim olish, ilmlar bilan shug'ullanish imkoniyatini ham

tadbirkorlik va biznes ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha xorijiy tajribada qo'llaniladigan chora-tadbirlar doirasi ancha keng.

Masalan, Germaniyada fan va ta'lim sohalarida vaucher usuli keng qo'llanadi. Tashkilotlar har yili 20 ga yaqin vaucher olishi mumkin, bu esa xodimlarni, jumladan, ayollarni o'qitish xarajatlarining 50 foizini qoplaydi. 2016-yilda ayollar tomonidan tashkil etilgan yirik hajmdagi “start up” loyihalar natijasida Vyetnam, Meksika, Indoneziya va Filippinda ayollar gender tafovuti bartaraf etilgan. Boshqa ko'pgina mamlakatlarda gender tafovut asta-sekin yo'q bo'lib bormoqda. Xususan, Turkiya, Janubiy Koreya va Slovakiyada ayollarining tadbirkorlikdagi ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. AQSHda ayollar biznesini qo'llab-quvvatlash va ularga yordam berish uchun maxsus bank tashkil etilgan. Kanada hukumati tadbirkor ayollarga e'tibor qaratib, o'z iqtisodiyotini jonlantirish maqsadida ayollar tadbirkorlik strategiyasini (Women Entrepreneurship Strategy — WES) ishlab chiqqan.

Bu yo'nalishda mamlakatimizda ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Tumanlar kesimida bandlik dasturlari ishlab chiqilib, uni iqtisodiyotning barcha yo'nalishlaridagi dasturlar bilan uzviy bog'lashga alohida e'tibor qaratilayapti. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni mahalladan turlib amalga oshirish, 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatni bevosita mahallaning o'zida yo'lga qo'yish choralarini ko'rilmoqda. Mahallabay ishlab orqali har bir hududning salohiyatidan oqilona foydalanish, yangi ish joylarini yaratishga e'tibor kuchaytirilayapti.

Taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifati ta'lim yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham bu borada muhim chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan 75 ming ishsiz xotin-qizni davlat hisobidan mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish rejalashtirilgan. Hozirgacha ulardan 31,2 ming nafari o'qib, tegishli kasb malakasiga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, kasb-hunarga o'qitish markazlarida o'qitilgan, malakaga ega bo'lgan xotin-qizlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilishi uchun ular faoliyatiga subsidiya va imtiyozli kreditlarni jalb etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, o'lis va chekka hududlarda istiqomat qilayotgan, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta'minlaydigan tadbirkorlik subyektlari uchun 50 million so'm miqdorida grant loyihalar amalga oshirilayapti. Bunday muhim loyihalar ayollar bandligini ta'minlash, oilalar farovonligini oshirishga xizmat qilayotir.

Ijtimoiy o'qitish va ta'lim bo'yicha chora-tadbirlari xotin-qizlarning oliy ta'lim olish, ilmlar bilan shug'ullanish imkoniyatini ham

kengaytirilmoqda. Bu borada 2020-yildan ijtimoiy himoyaga muhtoj oila qizlariga oliy ta'limga o'qishga kirish uchun 4 foiz kvota joriy etildi. 2022-2023-o'quv yilidan oliy ta'lim muassasalarini, texnikum va kollejlarda o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktini to'lash uchun foizsiz ta'lim kreditlari beriladigan bo'ldi. Magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning shartnomadan to'lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi belgilandi. Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim shartnomalarini mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartsiz qoplash tartibi o'tatildi.

Joriy yil xalqimiz hayotida muhim yangilanishlar ro'y bermoqda. Xususan, 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Unda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq muhim qoidalar o'z aksini topdi. Jumladan, Konstitutsiyamizda har kimning mehnati uchun hech qanday kamsitishsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolati haq olish huquqi kafolatlandi. Hozirgi davrda yoki bolasi borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ish haqini kamaytirish taqiqlandi.

Ayollarning nafaqat jamiyatdagi nufuzini oshirish, balki qiyin ijtimoiy sharoitga tushib qolgan, nogironligi bor, uy-joyga muhtoj, boquvchisini yo'qotgan, farzand tarbiyasi hamda iqtisodiy ta'minot zimmasida bo'lgan xotin-qizlarga demokratik-huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatda baxtli hayot kechirish imkoniyati kafolatlandi.

Gender tenglik prinsiplarini Konstitutsiyada belgilash davlat tomonidan ayollarga bo'lgan alohida e'tiborni ko'rsatish bilan birga, ularning davlat va ijtimoiy hayotdagi rolini oshirib, o'z imkoniyatlarini namoyon etishiga xizmat qiladi. Jamiyatimizda gender tenglikni ta'minlash borasidagi izchil islohotlar samarasi xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki yanada kuchayadi. Xususan, 2030-yilga qadar boshqaruv lavozimlarida ishlovchi xotin-qizlar ulushi kamida 30 foizga yetishiga erishiladi.

Bularning barchasi oila va jamiyat tayananchi bo'lgan opa-singillarimizning hayotdan rozi bo'lishiga erishish va ertangi kunga ishonchini kuchaytirishga zamin yaratishi tabiiy. Ayollari shodomon mamlakatda esa ertangi kunga ishonch mustahkam bo'ladi, baxtiyor ona bag'rida baxti to'kis farzandlar kamolga yetadi. Ishonchimiz komilki, baxtiyor avlod ertangi muvofiq muvofiq davomchisi bo'ladi, ezgu niyatlarimizni ro'yobga chiqaruvchi yetakchi kuch bo'lib maydonga chiqadi.

YOZ O'TMOQDA SOZ

OROMGOHLAR BOLALARNI KUTMOQDA

Farg'ona viloyatida joriy mavsumda 32 ming nafardan ortiq bolajonlar yozgi sog'lomlashtirish oromgozlariga jalb etiladi



Bu yilgi yoz farg'onalik bolajonlar uchun yanada qiziqarli voqea va tadbirlarga boy bo'ladi. Sababi viloyatda bolalarning yozgi dam olishini tashkil etish, mavsumni esda qolarli taassurotlarga boy ruhdan o'tkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu bejiz emas, albatta.

Zero, keyingi yillarda yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ta'lim-tarbiyasini yanada yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish uchun keng shart-sharoit yaratishga bo'lgan e'tibor oshdi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlash, hayotda munosib o'rin topishiga ko'maklashish davlatimizning doimiy e'tiborida. Bularning bari kelajagimiz vorislari hayot tarzida yangi imkoniyat eshiklarini ochmoqda.

Birgina misol. O'tgan yili olis So'x tumanida 5 gektar maydonda barpo etilgan “So'x” bolalar sog'lomlashtirish oromgohi ish boshladi. Shu kunga qadar bu yerda bolalar oromgohi yo'q edi. Minglab o'quvchilar yozgi ta'limi uyda o'tkazardi. Bugun ushbu tog' qishlog'i bolalar ham o'zlarining hayot tarzida bo'y ko'rsatgan o'zgarishlardan bahra olib yashamoqda. 200 o'rinda mo'ljallangan oromgohdan o'tgan mavsum davomida 700 nafardan ziyod bola maroqli horid oldi. Bu yerda o'g'il-qizlarning miriqib dam olishi, jis-

monan chiniqib, salomatligini mustahkamlashi, bilim va ko'nikmalarini oshirishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Yangi mavsum esa yanada qiziqarli o'yin-kulgilarga boy bo'ladi.

Ezgu maqsad yo'lida boshlangan islohotlar samarasi tufayli ko'hna Shohimardon qishlog'ida bolalar oromgohi ham o'g'il-qizlar quvonchiga to'ldi. Purviqor tog'lar bilan o'ralgan so'lim maskan chorak asrki huvillab yotgandi. O'tgan yoz mavsumida bu yerda Farg'ona tumani, xususan, Shohimardon va Yordon qishloqlaridagi minglab bola maroqli dam olib qaytdi.

Ko'lami keng ezgu ishlar joriy yilda yanada bardavom bo'lishiga alohida e'tibor qaratganmiz, — deydi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Farg'ona viloyati kengashi raisi Erkinjon Nuraliyev. — 2022-yil 18-noyabrdagi “Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qaroriga ko'ra, viloyatimizdagi 8 ta oromgoh Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirishini tashkil etish departamenti tasarrufiga o'tkazildi. Ayni kunga qadar

barcha inshootlar “Bolalarni sog'lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasi” mablag'lari hisobidan joriy ta'mirlanib, mavsum uchun taxt qilindi. Oromgozlarga oshxonalar, kutubxonalar, yotoqxona va tibbiyot jihozlari, sport inventarlari, kompyuter jamlanmalari, televizorlar, ovoz kuchaytirgichlar, elektr generator kabi zaruriy vositalar yetkazib berildi. Joriy yil yozgi mavsumda 17 ta statsionar oromgohda 104 040 nafar bola dam oladi. Shu bilan birga, 121 ta sog'lomlashtirish maydonchasida kunduzgi bolalar oromgohi tashkil etilishi hisobiga

21 040 nafar yosh dam olishi bilan bog'liq tegishli chora-tadbirlar ko'ndi. Bu umumiy hisobda 32 080 nafar bolani yozgi dam olish maskanlariga qamrab olish imkoniyatini beradi.

Rishton tumanidagi “Qo'rg'oncha” mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi “Rishton” oromgohida bolalarning mazmunli dam olishini tashkil etishga alohida e'tibor qo'ldi. Oromgoh hududida suv ta'minoti taqchilligi bartaraf etilib, toza ichimlik suv chiqarildi, miqrona o'tmatildi. Yangi tarmoq toza ichimlik suv ta'minoti bilan bog'liq muammolarga yechim topdi.



— Yozgi ta'limning 4 mavsumida 480 nafar bolani qabul qilish bilan bog'liq zarur sharoitlar yaratildi, — deydi oromgoh rahbari Shuhrat Muyassarov. — Bolalar uchun 2 ta sun'iy suv havzasi o'rnatildi, 2 ming kitob fondiga ega kutubxona faoliyati yo'lga qo'yildi. Yangi yotoqxona va tibbiyot jihozlari bilan ta'minlandi. Bolajonlarni sog'lomlashtirish, har bir kunini mazmunli va qiziqarli o'yinlarga boy tarzda o'tkazish uchun barcha sharoitlar bor. O'quvchi yoshlar “Mohir qo'llar”, “Happy English”, “Ertaklar olamida”, mental arifmetika, tasviiy san'at, taekvondo, shaxmat, shashka, stol tennis, “Yosh kitobxon”, raqs to'garaklariga jalb qilinadi. Bu yoshlarga o'z vaqtida o'ynab, dam olish, qiziqarli mashg'ulotlarda qatnashish imkoniyatini beradi.

Bolajonlarning mazmunli horid chiqarishi uchun barcha oromgozlarda puxta

tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, mavsum davomida turli davra subbattari, qiziqarli uchrashuvlar, intellektual o'yinlar, viktorina hamda sport musobaqalari o'tkaziladi. Bundan tashqari, taniqli ijodkorlar bilan uchrashuvlar, diqqatga sazovor joylarga sayohatlar tashkil etilishi yoshlarga olam-olam quvonch ulashadi.

Umuman, bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirishga tayyorgarlik ko'rish ishlari faqat yozgi mavsumda emas, butun yil davomida olib borilmoqda. Buning natijasida chekka qishloqlarda istiqomat qiluvchi o'g'il-qizlar ham so'lim oromgozlarda dam olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri


“QORONG‘U KECHA YURIB SUBHIDAM TOMON BORDI...”

yoʻxud Gʻafur Gʻulom abadiyati



Rahmon QO'CHQOR,
Toshkent davlat yuridik
universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi

Mamlakatimizda zabardast ijodkor Gʻafur Gʻulom tavalludining 120 yilligi, dunyo boʻylab esa 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni keng nishonlanayotgan bir pallada millionlar koʻnglini koʻtaruvchi xushxabar tarqaldi: mashhur BBC axborot agentligining “BBC Culture” nashri barcha davrlardagi bolalar adabiyotining eng yaxshi yuzta namunasi roʻyxatini eʼlon qildi. Bu roʻyxatdan millatimizning ardoqli farzandi, akademik Gʻafur Gʻulomning 1936-yilda eʼlon qilingan “Shum bola” qissasi ham oʻrin egallagan.



QR-KODNI SKANER QILISH ORQALI VIDEOGA OʻTING!

Biz oxirgi gapda “munosib oʻrin” degan jumlaning ongli tarzda qoʻllamadik. Gap shundaki, “Shum bola”ga boyagi roʻyxatning 72-pogʻonasi “munosib koʻrilibdi”. Albatta, badiiy did, estetik dunyoqarash, talab va taklif masalasida birov bilan tortishib, obroʻ orttirib boʻlmagligiga aqlimiz yetadi. Qolaversa, roʻyxatning yuqori oʻrinlaridan joy egallagan fransuz adibi Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” qissasi singari betimsol namunalarga ham eʼtiroz boʻlishi mumkin emas. Biroq oʻsha roʻyxatda oldingi oʻrinlarda qayd etilgan koʻplab kitoblarning oʻzbek adibi asaridan har jihatdan ustun ekani masalasida jiddiyroq oʻylab koʻrilsa, zarar qilmas edi. Zero, oʻsha asarlarning aksariyati ertak yoxud ertaknamo siyoqqa ega kitoblarki, adabiy janrlar tabiatidan oʻziga xabardor kishilar bunday janrlar muallifga qanchalar koʻp imkoniyat va erkinliklar berishini yaxshi tasavvur qiladi. (Binobarin, oʻzbekning oʻz bolalariga ilingani — yuzlab ajoyib ertaklarini shaxsan men oʻsha asarlardan hech kam koʻrmayman!)

Qolaversa, BBC soʻrov oʻtkazgan 56 davlatdagi 177 ekspertning aksariyati Ovrupa tillari vakillari boʻlsa, ajab emas. “Alisa moʻjizalar mamlakatida”, “Kichkinoy va tomida yashaydigan Karlson” singari asarlarni ular yaratilgan tilda mutolaa qilgani holda, “Shum bola”ni tarjimada oʻqigan aniq. Eng yaxshi tarjima esa ustoz Erkin Vohidov topib aytganidek, nari borsa, Quyoshni Oyga aylantirishi bor gap...

Biz azbaroyi millatdosh boʻlganimiz tufayliga Gʻafur Gʻulom asari xususida jon tortib gapirayotganimiz yoʻq. Buning sabablari, omillari obdan jiddiy, ancha chuqur. Aytganidek, yozuvchi “Shum bola” qissasining dastlabki nusxasini oʻtgan asrning 30-yillarida yozib bitirgan. “Uzilgan bir kiprik” nomli maqolamizda taʼkidlaganimizdek, barcha qadriyatlar ostin-ustun qilingan, odamlar bir-biriga yov sinflarga ajratilgan, ogʻa iniga gij-gijlangan, bunyod etmoqdan koʻra buzmoq-yanchmoq urfga aylangan paytlar. Gʻafur Gʻulomlar avlodi misolidagi yosh aqllar, navjuvon qalblar esa oʻziga yoʻl

izlaydi, boʻlayotgan talotumlardan mantiq-maʼno qidiradi. Bir otalarning malomat toʻla koʻzlariga, bir dajjol hukumatning qahrli nigohiga duch keladi. Samimiyatiga shubha, begʻaraz niyatiga taʼqib, ichki ijodiy talpinishlariga toʻsiq koʻraveragach, chor-choroq umumoqimga qoʻshiladi:

*Nechun tushuntira oldim
buni gumon eliga,
Hamisha ishqni qiluvchi
imtihon eliga,
Ki birni ikki deyib
boʻlmagʻay zamon eliga...*

Natijada aslini yurak qobigʻiga yashirib, sirtida “koʻrsatilgan yoʻldan shaxdam yuradi”. Lekin ichki istehzo, oʻzining ustidan ham alamli mazax bir lahza boʻlsin tinchlik bermaydi:

*Soʻylab bera boshlayman
har xil anekdot,
Yolgʻonlar marjonin ipga teraman.
Bir vaqtlar zavq bilan
yod olgan qoʻr-qt,
Xayyom sheʼrlarini oʻqib beraman...
Tillarda “Oh uring,
yangi turmush-chun”,
Zehn okurkaday oyoq ostida...*

Endi birrov oʻzimizga savol beraylik: oʻtgan asrning 30-yillari boshidayoq hukmron tuzumning asl mohiyatini bu qadar aniq va loʻnda shaklda ifodalab

bera olgan ijodkorlar shoʻro adabiyotida koʻpchilik edimi? Shu tufayli ham Gʻafur Gʻulomlar avlodi xususida mulohaza yuritilganda, bizningcha, ularning tarjimai holini, oʻsgan muhitini, bir lahza boʻlsin, yoddan chiqarmaslik lozim. Muhtiki, faqat ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mafkura taʼsirini emas, balki ularning bolaligi, shaxsiy taqdiri bilan bogʻliq tafsilotlarni ham.

Agar eʼtibor bersak, bu avlod ijodkorlarining aksariyati asr boshidagi xonavayron mamlakatning nochor oilalarida, “tomiridan qor oldirgan bemor” (Hamza) holiga solingan yurtda koʻz ochdi. Buning ustiga ularning murgʻak boshiga yetimlik azoblari basma-bas yogʻildi. Agar Oybek (“Bolalik”), Abdulla Qahhor (“Oʻtmishdan ertaklar”) oʻz bolalik davri xususida nisbatan kechroq — umrlari poyonida eslovga berilgan hamda hikoyaning jiddiy tarzini ixtiyor etgan boʻlsa, Gʻafur Gʻulom hali xotiralar yangiligida, taassurotlar soʻvib ulgurmagandayoq bu ishg qoʻl uradi. Bayon tarzini ham shunday (adibning oʻz tili bilan aytganda, “gʻafurovskiy”) tanlaydiki, bundan boshqacha usulni kitobxon tasavvur qilishni ham xohlamay qoladi.

Gʻafur Gʻulom tugʻilgan oilaning taqdiri yodingizdami? Gʻafurjon toʻqqiz yoshida otasidan, oʻn beshga kirib-kirmay onasidan ajraladi. Ukalari va singillari bilan gʻirt yetim qoladi. Yana qanaqa paytda deng? Aytganimizdek, butun dunyoda



“SHUM BOLA” QISSASINING BOSH QAHRAMONI — QORAVOY HAM SHUNDAY OGʻIR KUNLARDA OTASIDAN AYRILGAN OʻN TOʻRT YOSHLI OʻSPIRIN. ONASI BIR ETAK BOLANI BOQISH UCHUN TUN-U KUN TINIM BILMAYDI. SHUM BOLA BOʻLSA, TENGDOHLARIGA QOʻSHILIB, ERTA TONGDAN TO QORONGʻI KEHGACHA KOʻCHADAN KELMAYDI. U YERGA URSA, KOʻKKA SAPCHYIDIGAN, BIR JOYDA UZOQROQ TURIB QOLSA, YURAKKINASI TORIQIB KETADIGAN BOLALAR XILIDAN.

urushning sovuq nafasi kezib yurgan, oʻlkamizda iqtisodiy va maʼnaviy-maʼrifiy tanazzul ayni chuqurlashgan, nima bilandir qorin toʻygʻazish, ustga kiyim-bosh topish hayot-mamot masalasiga aylangan yillar.

“Shum bola” qissasining bosh qahramoni — Qoravoy ham shunday ogʻir kunlarda otasidan ayrilgan oʻn toʻrt yoshli oʻspirin. Onasi bir etak bolani boqish uchun tun-u kun tinim bilmaydi. Shum bola boʻlsa, tengdoshlariga qoʻshilib, erta tongdan to qorongʻi kechgacha koʻchadan kelmaydi. U yerga ursa, koʻkka sapchiydigan, bir joyda uzoqroq turib qolsa, yurakkinasini toriqib ketadigan bolalar xilidan.

Ajoyib kunlarning birida Qoravoy onasini xafa qilib qoʻygandan xijolat boʻlib, qolaversa, biror oy mehnat qilib pul topib kelish ilinjida “etakni turmaklab, sagʻrisiga bir mushtlab, “hayyo-hu” deb shahardan tashqariga qarab yoʻlga ravona” boʻladi. Uning Toshkent atrofidagi qishloqlarda kechadigan sarguzashtlari sarguzasht ulanib, darbadarlik yarim yildan ortiq davom etadi. Shu vaqt ichida Shum bola bir-biridan qiziq voqealar ishtirokchisiga, uyushtiruvchisi va jabrdiydasiga aylanadi:

Bola koʻrmagan pochchasi oʻzini “sen”lab, ularni “siz”lab boqayotgan “zotdor, tagi koʻrgan”, “sohibchangan” qushlarning tezagi oq boʻlganidan “mantiqiy xulosa chiqarib”, qanotli doʻstlarga qatʼiq va sizma ichirib, uch kunda harom oʻldiradi.

Tursun pichoqchining oʻgʻli, oʻzidan bir-ikki yosh katta oʻrtogʻi Omon bilan “mol-u jonni bir, ahd-u paymon” qilib, “katta, ulugʻ safarni moʻljal olib, choʻli malik” sari ketar ekanlar, oxir-oqibat Sulton oʻgʻri boshchiligidagi kissavurlar changaliga tushadi.

Oʻzini nihoyatda ulugʻ shajaraning davomchisi deb sidqildan ishonadigan, aslida boʻlsa, yolgʻon qasamni suvdek seskanmay ichaveradigan (“Hazrat boʻlsa, oʻzini umr boʻyi oʻlikdan boshqa narsani yuvmagan kishidagi qilib koʻrsatishga harakat qilardi”) chalasavod kimsa boshchiligidagi koʻchmanchilar ovulida oʻlik yuvib, sharmanda boʻlishadi.

Masjid imomining ogʻilxonasida oʻsallab qolgan hoʻkiz oʻrniga soppa-sogʻ eshakni soʻyib qoʻyib (hoʻkiz ham harom qotadi!), rosa kaltak yeydi va hokazo.

Shum bola qayerga bormasin, kim bilan toʻqnashmasin, hamma joyda katalarning oʻziga bepisand qarashi, qoʻpol muomalasiga duch keladi. Oʻzlarini goʻyo yetimning boshini silaydigan himmatli

toʻla muhtini ham yosh bola nigohi orqali rang-barang mazmunga toʻla holda bizga taqdim etadi. Qissani oʻqir ekanmiz, undagi hodisalar va talqinning qiziqligi, qahramonlar xarakteridagi yorqin jihatlari bizni butunlay oʻziga rom qilib oladi. Garchi, yuqorida aytganimizdek, bosh qahramon uch keladigan odamlarning koʻpchiligi ochkoʻz, xasis, nazari past kimsalar boʻlsa-da, bizning Shum bola bunday kimsalarni bir koʻrisha taniydi, ularning chirkun muhtidan iloji boricha tezroq qutulish yoʻllarini qidiradi va albatta, topadi! Mana shu pallalarda Shum bolaning naqadar topqir, ziyrak, baʼzan esa, yaxshi maʼnoda, chinakam shum bola ekaniga qayta-qayta amin boʻlamiz.

Badiiy asarning qimmati faqat unda tasvirlangan voqealarning qiziq va oʻziga tortuvchanligi bilan emas, balki, birinchi navbatda, ijodkor kashf etgan izhor tili, uning badiiy betakrorligi, shirilligi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, xorij axborot agentligi soʻroviga javob bergan ekspertlar Gʻafur Gʻulom qissasi tilida qoʻllangan birgina oʻxshatishlarni asiyatda idrok qilganida, ularning xulosalari ham, yuqorida aytganimizdek, boshqacharoq boʻlishi tayin edi. Mana oʻsha — “gʻafurovskiy” til va uning jozibasidan ayrim namunalari:

“It quvgan tulkidek olazarak Omon menga ergashdi”;

“Sirlangan xumchaga tushgan sichqonday toʻrt tomonga alanglab, oʻzimga bir najot yoʻli qidirar edim”;

“Zinadan chiqqan itdek toʻrt oyoqlab narvonga tirmashib tomga chiqdim”;

“Xotin qozonning qoppoqʻini ochdi — baliqday boʻlib, oppoq laganda moshkichiri chiqdi, oʻrtaga qoʻyildi”;

“Qoʻylar xuddi suvga tushgan sichqonday boshlarini koʻtarib suzar edilar”;

“Har ikkovimizning yuragimiz dard tekkan terak yaprogʻiday qaltirab turibdi” va hokazo.

Gʻafur Gʻulomning nafaqat bu qissasi, balki butun ijodi davomida yozgan koʻplab sheʼriy va nasriy asarlari ham adibning bolalar hamda yoshlar taqdiriga qattiq qaygʻurgani, jonajon xalqining kelgusi naslari har jihatdan komil boʻlishi tashvishida jon kuydirganidan yaqqol dalolat beradi. Uning qanchalar bolajon ota, oilaparvar erkak bolalari yuzlab satrlarda muhrlanib qolgan:

Oilada muhabbat tuzdan

oldin turadi,

Oʻsma ekkat oʻtaman

qoshing qaro boʻlsin, deb.

Chunki qosh degani koʻzdan

baland turadi,

Boshingga yoqqan yomgʻir

koʻzingga tushmasin, deb.

Tavalludiga 120 yil toʻlgan, oʻlmas “Shum bola” qissasi barcha davrlardagi dunyo bolalar adabiyotining eng sara yuz kitobi roʻyxatidan oʻrin olgan Gʻafur Gʻulom ham oʻzi astoydil ixlos qoʻygan ustozlari — Hazrat Navoiy, Bobur Mirzo, Mirzo Bedil, Mavlono Muqimiy singari chin maʼnoda millat bolalarining maʼnaviy padari boʻlish huquqiga egadir, desak, bizni ortiqcha mubolagʻada ayblashmasa kerak.